

O'ZBEKISTON SIYOSIY TIZIMINING EVOLUTSIYASI: TARIXIY BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Boboqulova Laylo Bahrom qizi
Millat Umidi Universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston siyosiy tizimining tarixiy shakllanishidagi barcha bosqichlari, zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va siyosiy institutlarning evolyutsiyasi yoritilgan. Mustaqillikdan so'ng mamlakatda siyosiy tizimning demokratik asoslarda qayta tashkil etilishi va shu bilan birga fuqarolik jamiyatini shakllantirish va hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bo'yicha olib borilgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosiy modernizatsiya jarayonlari va shu bilan birga "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasining siyosiy tizim evolyutsiyasiga mutloq ta'siri ko'rib chiqilgan. Mustaqillikdan oldingi sovet davridagi markazlashgan boshqaruv tizimidan tortib, hozirgi "Yangi O'zbekiston" davrigacha bo'lgan siyosiy islohotlar bosqichma-bosqich yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *siyosiy tizim, mustaqillik, demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati, siyosiy institutlar, konstitutsiya, davlat boshqaruvi.*

Annotation *This article explores the historical stages of the formation of Uzbekistan's political system, highlighting its modern development trends and the evolution of political institutions. It analyzes the democratic reorganization of the political system after independence, focusing on reforms aimed at establishing civil society and maintaining a balance among the branches of power. Furthermore, the article examines the processes of political modernization and the decisive impact of the "New Uzbekistan" concept on the evolution of the country's political structure. The transition from the centralized Soviet governance model to the current era of democratic reforms under "New Uzbekistan" is presented step by step.*

Keywords: *Uzbekistan, political system, democratic reforms, political institutions, civil society, political modernization, New Uzbekistan.*

Har bir mamlakatning siyosiy tizimi uning tarixiy taraqqiyoti, milliy qadriyatlari, ijtimoiy tuzilmalarini va xalqning siyosiy madaniyatining yuksak darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Siyosiy tizim jamiyat hayotining boshqaruv mexanizmini, hokimiyatning tashkil etilishi va amalga oshirilishini, davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning o'zaro bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlarini ifodalaydi. Shu ma'noda aytish kerakki, siyosiy tizim nafaqat mamlakatning ichki barqarorligi, balki davlat mustaqilligi va jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Siyosiy tizim — bu jamiyatning yuragi hisoblanishi be'jiz emas. U davlat hokimiyatining shakli va mohiyatini ifodalovchi va shu bilan birga, xalq bilan davlat o'rtasidagi bog'lovchi halqa desak adashmaymiz. Har qanday davlatning kuchi, barqarorligi va taraqqiyoti, birinchi

navbatta , uning siyosiy tizimi qanday shakllangani va qay tarzda ishlashiga bog'liq. Siyosiy tizim orqali davlat hokimiyati amalga oshiriladi, natijada jamiyatda tartib, nizom va muvozanat saqlanadi, fuqarolarning siyosiy huquqlari kafolatlanadi hamda ularning davlat boshqaruvida ishtiroki ta'minlanadi. O'zbekistonning siyosiy tizimi bugungi ko'rinishiga bir zumda erishmagan. Bu tizim uzoq tarixiy bosqichlarni, siyosiy o'zgarishlar, xalqning siyosiy madaniyati va milliy qadriyatlar ta'sirida shakllanib mustahkamlanib kelmoqda.

O'zbekiston uzoq yillar mobaynida turli xil siyosiy tuzumlar ostida bo'lgan: xonliklar davri, mustamlakachilik, sovet davri va nihoyat mustaqillik. Har bir davr siyosiy tizimning keyingi shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida mamlakat siyosiy tizimi , siyosiy ahvolda tubdan o'zgarishlar yuz berdi, milliy va demokratik qadriyatlarga asoslangan yangi bir tizim yaratildi. Mustaqillikka qadar

O'zbekiston siyosiy tizimi sobiq SSSR tarkibiga kirgan bo'lib , markazlashgan boshqaruv, partiyaning yagona hukmronligi, mafkuraviy nazorat va siyosiy erkinliklarning cheklanganligi bilan xarakterlangan edi.

Yangi mustaqil O'zbekiston o'z siyosiy tizimini yaratishda o'z oldiga ikkita asosiy maqsadni ko'zlagan .Bulardan birinchisi – bu suverenitetni ta'minlash va davlat mustaqilligini mustahkamlash; ikkinchisi esa demokratik boshqaruv tamoyillariga asoslangan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi tizimni bunyod etish. Bu ikki vazifa siyosiy tizim yaratishdagi asosiy maqsadlardan hisoblanadi. 1992-yil 8dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan, bu borada tub burilish yasadii. U mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini tartibga solib turuvchi asosiy huquqiy hujjat sifatida siyosiy tizimning poydevorini belgilab berdi.

Konstitutsiyada O'zbekiston “demokratik, huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat” deb ta'rif etildi. Bu esa o' nafbatida o'sha davr uchun nafaqat siyosiy jasorat, balki yangi davrning bosh yo'nalishini belgilovchi siyosiy manifest edi.

O'zbekistonning siyosiy tizimi mustaqillikdan so'ng izchil va bosqichmabosqich shakllandi. Birinchi o'rinda aytishimiz kerakki, davlat hokimiyatining uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mustaqil faoliyat yuritish prinsipi asosida tashkil qilindiii. Shu bilan birga, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV, mahalla institutlari kabi demokratik institutlar rivojlantirila boshlandi. 1990yillarda siyosiy partiyalar faoliyatining boshlanishi O'zbekistonda ko'ppartiyaviy tizimni shakllantirish uchun muhim qadam bo'ldi desak adashmaymiz iii.

Islom Karimov rahbarligi davrida olib borilgan “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat sari” tamoyili O'zbekiston siyosiy tizimi rivojining keyingi bosqichini belgilab berdiiv. Bu g'oya asosida siyosiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi va davlatning boshqaruvdagi roli sekin astalik bilan fuqarolik jamiyati institutlariga o'tkazila boshlandi. Oliy Majlisning ikki palatali tizimga o'tdi. OliyMajlisning ikki palatali tizimiga o'tishi, saylov qonunchiligining takomillashtirilishi, sud-huquq islohotlari, mahalla institutlarining mustahkamlanishi – bularning barchasi siyosiy tizimning demokratiklashuviga cheksiz xizmat qildi.

O'zbekistonning siyosiy tizimi global jarayonlar va ichki ehtiyojlar ta'sirida shakllanib bordi. 1990–2000-yillar dunyo miqyosida demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, erkinlik va xalq hokimiyati g'oyalari kuchaygan davr hisoblanib, bu davrda O'zbekiston ham ayni shu jarayondan chetda qolmadi. U o'zining milliy modeliga asoslandi va shu bilan bir qatorda siyosiy islohotlar yo'lini tanladi. Bunda u siyosiy xalqaro demokratik mezonlarga tayandi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, siyosiy tizimning evolyutsiyasi hech qachon bir zumda amalga oshmagan. Har qanday siyosiy islohot, ayniqsa o'tish davri sharoitida, jamiyatning tayyorgarligi, ijtimoiy barqarorlik darajasi, xalqning siyosiy ongiga bevosita bog'liq bo'ladi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, Davlatimiz o'ziga xos yo'l – bosqichma-bosqich, barqarorlikni saqlagan holda demokratik tizimga o'tish yo'lini tanladi.

2016-yildan keyingi davr O'zbekiston siyosiy tizimining yangi bosqichi – “Yangi O'zbekiston” davri sifatida tarixda qolmoqdav. Ayni shu bosqichda siyosiy islohotlar yanada rivojlandi, davlat boshqaruv tizimida tub o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida “Davlat xalq uchun xizmat qilishi kerak” degan tamoyil amaliyotga joriy etildi. Endilikda mamlakat fuqarolari siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchilaridan biriga aylandi, davlat idoralari esa xalq oldida ochiq va hisobdor bo'lish majburiyati yuklandi. Yangi siyosiy tizimda fuqarolik jamiyatining roli sezilarli darajada oshdi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV, yoshlar va ayollar tashkilotlari, mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatiga keng imkoniyat berildi. “Ochiq muloqot”, “Xalq qabulxonalari”, “Virtual qabulxonalar” singari yangi mexanizmlar taqbiq etildi. Shuningdek, O'zbekistonning tashqi siyosatida ham tub o'zgarishlar yuzaga keldi. Mamlakat Markaziy Osiyo mintaqasida do'stlik, hamkorlik va tinchlik siyosatini olg'a surmoqda. O'zbekistonning siyosiy tizimi nafaqat ichki, balki xalqaro miqyosda ham ochiqlik va ishonchlilikni aks ettiradi. Siyosiy tizimning evolyutsiyasi bilan bir qatorda, siyosiy madaniyat ham o'zgardi. Mustaqillik yillarida fuqarolarning siyosiy ongi, davlatga bo'lgan munosabati va fuqarolik mas'uliyati sezilarli darajada oshdi. Avvallari faqat saylov paytida faol bo'lgan aholining siyosiy faolligi bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, jamoat kengashlari, mahalliy hokimiyat bilan muloqot platformalari orqali ham faolligi yil davomida kuzatilmoqda.

O'zbekiston siyosiy tizimi bugungi kunda o'zining uch asosiy tamoyiliga tayanadivi:

- Xalq manfaatlarini ustuvor qo'yish,
- Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflik amal qilish,
- Inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta'minlash.

Hozirgi kunda O'zbekiston siyosiy tizimining rivojlanishi global tendensiyalar bilan uyg'unlashmoqda. “Raqamli hukumat”, “elektron parlament”, “ochiq byudjet” singari tashabbuslar davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish, korrupsiyani

kamaytirish va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan.

O'zbekiston siyosiy tizimining tarixiy bosqichlari O'zbekiston siyosiy tizimi mustaqillikka erishgunga qadar bir necha tarixiy davrlarni, bosqichlarni boshdan kechirdi. Har bir davrda siyosiy boshqaruv shakli, hokimiyatning tashkil etilishi va fuqarolarning siyosiy faolligi o'zgarib boraverdi. Biz bu jarayonni to'rtta asosiy bosqichda tahlil qilamiz.

1. Sovet davri (1917–1991-yillar): markazlashgan siyosiy tizim davri .

O'zbekiston XX asrda Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan, bu davr mamlakat siyosiy tizimining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi desak mubolag'a bo'lmaydi. 1917yildagi Oktyabr inqilobidan keyin, sobiq Rossiya imperiyasi hududlarida kommunistik boshqaruv tizimi o'rnatildi.

1924-yilda O'zbekiston SSR tashkil topgach esa siyosiy tizim to'liq SSSR Konstitutsiyasiga bo'ysuna boshladi.

Bu davrning asosiy xususiyatlari quyidagicha edi:

Bir partiyaviylik tizimi. Kommunistik partiya (KPSS) yagona siyosiy kuch hisoblanib, barcha siyosiy qarorlarni qabul qilgan.

Markazlashgan boshqaruv. Moskva tomonidan tayinlangan rahbarlar

O'zbekiston siyosatini belgilagan va mahalliy tashabbuslarni cheklab qo'ygan. Mafkuraviy nazorat. Davlatning barcha sohalarida "kommunistik mafkura" ustuvor edi; matbuot, ta'lim va madaniyat qat'iy nazorat ostida bo'lgan.

Fuqarolik jamiyati yo'qligi. Mustaqil partiyalar, jamoat tashkilotlari va erkin OAV mavjud emas edi. Shunga qaramay, Sovet davrida ma'lum ijobiy o'zgarishlar ham kuzatildi: ta'lim tizimi rivojlandi, sanoat sohasi shakllandi, ayollar siyosiy hayotda faol ishtirok eta boshladi. Biroq, siyosiy erkinlik, mustaqil fikr va milliy manfaatlar cheklangan edi. 1980yillarning oxirida Mixail Gorbachyov tomonidan boshlangan "Perestroyka" va "Glasnost" siyosati O'zbekistonda ham siyosiy uyg'onish jarayoniga turtki berdi. Milliy o'zlikni anglash kabi mustaqillik g'oyalari kuchaya boshladi. Bu jarayon keyinchalik siyosiy tizimda tub burilishlar uchun zamin yaratdi.

2. Mustaqillikning dastlabki yillari (1991–2000): milliy siyosiy tizimning poydevori.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'lon qildi. Shu tariqa, mamlakat o'zining yangi siyosiy tizimini shakllantirish bosqichiga kirishdi. 1992-yil

8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi siyosiy tizimning asosini tashkil qildi. Konstitutsiya mamlakatni demokratik, huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat deb belgilab, hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi tamoyilini mustahkamladi. Ayni shu davrda asosiy e'tibor quyidagi yo'nalishlarga qaratildi:

- Davlat mustaqilligini mustahkamlash. Markazdan mustaqil boshqaruv tizimi barpo etildi.

- Prezidentlik boshqaruvi shakli. Davlat boshlig'i sifatida Prezident institutining joriy etilishi siyosiy barqarorlikni ta'minladi.

- Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari shakllanishi. "Xalq demokratik partiyasi", "Fidokorlar", "Adolat", "Milliy tiklanish" kabi partiyalar tashkil topdivii.

3. Islohotlar davri (2000–2016): demokratik institutlarning mustahkamlanishi.

2000-yillardan boshlab O'zbekiston siyosiy tizimi yangi bosqichga o'tdi. Bu davrda asosiy e'tibor institutsional islohotlar, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni shakllantirishga qaratildi.

2002-yilgi Konstitutsiyaviy o'zgartirishlar natijasida hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanat yanada takomillashtirildi. 2005-yilda esa Oliy Majlis ikki palatali tizimga – Qonunchilik palatasi va Senatga ajratildi. Bu siyosiy qaror qonun ijodkorligini kuchaytirish, mahalliy hududlarning manfaatlarini hisobga olish imkonini berdi.

Bu davrning asosiy yo'nalishlari quyidagilar edi:

- Sud-huquq tizimini mustahkamlash. Sudlarning mustaqilligi oshirildi, inson huquqlarini himoya qilishga e'tibor kuchaytirildi.
- Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish. NNTlar, OAV, kasaba uyushmalari va mahalla tizimi faoliyati kengaya boshladi.
- Siyosiy raqobatni kengaytirish. Siyosiy partiyalar soni ko'paydi boshladi va saylovlarda ularning ishtiroki uchun keng sharoitlar yaratildi.
- Xotin-qizlar va yoshlarning siyosiy faolligi. Ularning davlat boshqaruvidagi ulushi tubdan ortdi. Bu davrda O'zbekistonning tashqi siyosatida barqarorlik va "mintaqada tinchlik, barqarorlik va hamkorlik" tamoyili ustuvor bo'ldi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamladi. Lekin, tashqi siyosatda ehtiyotkorlikni saqlab qoldi.

4. Yangi O'zbekiston davri (2016-yildan hozirgacha): ochiqlik, islohotlar va tashqi aloqalarning yangi bosqichi.

2016-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida siyosiy tizimda tub o'zgarishlar boshlandi. "Yangi O'zbekiston – yangi siyosiy madaniyat" tamoyili asosida saylov tizimi, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, siyosiy partiyalar, va tashqi siyosat kabi sohalarida keng qamrovli islohotlar yo'lga qo'yildix.

Tashqi siyosatda keng o'zgarishlar amalga oshirildi: O'zbekiston faol, muvozanatli va ochiqlilik yondashuvni tanladi.

Bu bosqichda quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etdi:

1. Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlikni kuchaytirish. O'zbekiston Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan do'stona aloqalarni o'rnatdi va ularni mustahkamladi.
2. Xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik tizimini yo'lga qo'ydi. O'zbekiston BMT, YeXHT, MDH, ShHT, IHT kabi xalqaro maydonlarda faol ishtirok eta boshladi.
3. Tashqi iqtisodiy siyosatda ochiqlilik. "Yangi O'zbekiston" tashqi siyosati Diplomatik faoliyat, xorijiy investitsiyalar va savdo aloqalarida yangi bosqichni boshlab berdi.
4. Afg'oniston masalasida tinchlik tashabbuslari. O'zbekiston mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikda muhim diplomatik rol o'ynamoqda.

II. O'zbekiston siyosiy tizimining rivojlanish tendensiyalari

O'zbekiston siyosiy tizimi bugungi kunga kelib bir nechta asosiy yo'nalishlar bo'yicha rivojlanmoqda:

1. Demokratik institutlarning chuqurlashuvi.

Mahalla tizimi, Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari faoliyati kengaymoqda.

Saylovlar ochiqlik va raqobat asosida o'tkazilmoqdaxi. 2023-yilgi Konstitutsiyaviy islohotlar demokratik institutlarning huquqiy asoslarini yanada kuchaytirdi.

2. Fuqarolik jamiyatining faollashuvi .

Mahalla fuqarolar yig'inlari esa jamiyatni boshqarishda muhim o'rin egallamoqda Nodavlat tashkilotlar, bloggerlar, yoshlar va ayollar harakati siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. 3. Raqamli siyosiy boshqaruvga o'tish.

“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimi raqamlashtirilmoqda. Ayni shu jarayon siyosiy tizimning shaffofligi, ochiqligi va xalq bilan muloqotini kuchaytiradi

4. Siyosiy madaniyatning o'sishi.

Fuqarolarning mas'uliyati va siyosiy ongi ortmoqda. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, Saylovlarda ishtirok etish, siyosiy fikr bildirish kabi jarayonlar keng miqyosda amalga oshirilmoqda .

XULOSA

O'zbekiston siyosiy tizimining shakllanish va rivojlanish jarayoni — bu milliy davlat qurilishining eng muhim, eng ustuvor va shu bilan bir qatorda eng murakkab bosqichlaridan biridir. Bu tizimning evolyutsiyasi mamlakatning siyosiy merosi, tarixiy o'tmishi, xalqning milliy qadriyatlari va global siyosiy jarayonlarning ta'siri ostida kechdi. Bugungi kunga kelib O'zbekiston o'zining mustaqil, demokratik va xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tizimiga ega bo'ldi.

Eng avvalo, mustaqillik O'zbekiston tarixida yangi davrni boshlab berdi. 1991-yilda suverenitetga erishildi. Bu esa siyosiy tizimning tubdan yangilanishiga, sobiq markazlashgan, buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvdan butunlay voz kechishga yo'l ochdi. O'zbekiston endi o'z siyosatini, ichki va tashqi yo'nalishlarini mustaqil ravishda belgilash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu o'zgarishlar natijasida, mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati yaratish uchun ustun bo'ldi.

Dastlabki yillarda siyosiy tizimning eng asosiy maqsadi — bu davlat mustaqilligini mustahkamlash, barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy inqirozlardan chiqish bo'ldi. Aloqa mexanizmlarining joriy etilishi, ochiqlik, shaffoflik, muloqot madaniyati, xalq bilan bevosita O'zbekiston siyosiy tizimini butunlay yangi bosqichga olib keldi.

“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi davlat boshqaruvida korrupsiyani kamaytirish, shaffoflikni oshirish va fuqarolarning davlat bilan bevosita muloqotini kuchaytirishga xizmat qilib kelmoqda. Bugungi kunga kelib, ko'plab xorijiy tashkilotlar mamlakatni Markaziy Osiyoda demokratik islohotlarni eng tez va samarali amalga oshirayotgan davlat sifatida baholamoqda.

Siyosiy tizimning evolyutsiyasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston o'z rivojlanish yo'lini aniq belgilagan. U bunda milliy qadriyatlar bilan uyg'un demokratik modernizatsiya yo'lini tanlagan. Bu yo'l birdaniga keskin o'zgarishlar bilan emas, balki xalqni inobatga olgan holda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan izchil islohotlarga asoslanadi. Shu boisdan ham, O'zbekiston siyosiy tizimining kuchi — uning xalq bilan muloqoti, uning barqarorligi va milliy

manfaatlarga tayanishidadir. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston siyosiy tizimining evolyutsiyasi – bu xalq irodasi, milliy o'zlik va demokratik qadriyatlarning uyg'unlashgan mahsulidir. Mustaqillik yillarida yaratilgan siyosiy asoslar bugun mamlakatni yangi bosqich – inson manfaatlari, adolat va taraqqiyot yo'nalishiga olib chiqmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- i O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: “Ozbekiston”,2023
- ii Ushbu tamoyil Konstitutsiya moddalari bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: “Ozbekiston”,2023 iii
- Karimov,I.A., 1992- yil manbasi
- iv Karimov,I.A., O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992 v Mirziyoyev, SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyas. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
- vi Mirziyoyev,SH. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston,2021
- vii O'zbekiston Respublikasi “ Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonun
- viii O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2002 va 2005- yillardagi o'zgarishlari.-Toshkent: O'zbekiston, 2005
- ix Mirziyoyev, SH. M. Yangi O'zbekiston strategiyas. Toshkent: O'zbekiston,2021.
- x O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni “ O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi to'g'risida”
- xi O'zbekiston Respublikasi “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi Qonuni. Toshkent,2007